



XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARIDA NUTQ MADANIYATI

Abduraxmonova Zumrad Normurot qizi

*Chirchiq davlat pedogogika universiteti 2-kurs magistranti.
Toshkent viloyati Nurafshon shahri ona tili va adabiyot o'qituvchisi
zumradabdurahmonova060@mail.com*

Annotatsiya. *Xalq og'zaki ijodi janrlarida nutqning madaniyligiga qaratilgan e'tibor, nutqning kommunikativ sifatlari, muloqot qilish odobi tushunchasi. Til va nutq mushtarakligi, jamiyat rivojining tilga ta'siri.*

Kalit so'zlar. *Maqol, topishmoq, rivoyatlarda nutq madaniyati belgilari.*

Annotation. *Attention to the culture of speech in the genres of folk art, communicative qualities of speech, the concept of communication etiquette, the commonality of language and speech, the influence of social development on language.*

Keywords. *Signs of speech culture in proverbs, riddles, narratives.*

Kirish. Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zlik va mustaqil davlatchiligimiz timsoli, bebaho ma'naviy boylik, mamlakatimizning siyosiy va ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy taraqqiyotida g'oyat muhim o'rin egallab kelayotgan buyuk qadriyatdir [1.1]

Tilimizning jahon xalqlari orasida munosib o'ringa ega bo'lishi, uning yuksalishi, taraqqiy etishi, albatta, tilning madaniylik darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Xo'sh tilning madaniyligi tushunchasi qanday birliklarni o'z ichiga oladi. Bu birinchi navbatda, tilning adabiy til me'yorlariga egaligi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, shu tilda so'zlovchilarning tildan foydalanish etikasini bilish darajasiga bog'liqdir. Bizning qadimiy va navqiron o'zbek tilimiz ham uzoq va zalvorli kechmishni boshidan kechirgan qadimiy tildir. Bu haqida muhtaram prezidentimiz Sh. Mirziyoyev tilimizga davlat tili maqomi berilganligini o'ttiz yilligi tantanasida shunday deb aytadilar: „Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dard-u armonlari, zafarlari va g'alaalari bilan chambarchas bog'liqdir“. [2.2]

Hozirgi kunda tilimizni rivojlatirish, uni jahonga tanitish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shular jumlasiga til va uning imkoniyatini bilish, undan oqilona foydalanish masalasi ham ancha diqqatli masaladir. Chunki hamma qaysi millat bo'lmasin, til vositalari va undagi imkoniyatlar bir xil, faqat shu tildan foydalanish, imkoniyatini anglashga oid qarashlar turlichadir. Har kim o'z tilini yaxshi bilishi uchun xalq og'zaki ijodi namunalariga murojaat qilsa, undagi mohiyatni anglasa, albatta, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki xalq og'zaki ijodi janrlarida xalqimizning o'zi boshidan o'tkazgan, hayot sinovida sinalgan, tajriba namunalari sanalib, unda hayotning turli xil vaziyatlari va ularning yechimlari xususidagi qarashlar jamlangan.



Dono xalqimiz tomonidan yaratilgan maqol, ertak, rivoyat va hikoyatlarda ham tilimizdan keladigan foyda va zararlar, yaxshilik va yomonliklar talqin qilib berilgan. Tilni keng imkoniyatidan to'g'ri foydalanish haqidagi ibratlar jamlanmasi jamlangandir. Shu imkoniyatlardan to'g'ri va maqsadli foydalanishni o'rgatish esa nutq madaniyatini fanining vazifasidir. Nutq madaniyati tilni imkoniyatidan imkon darajasida oqilona va mohirlik bilan foydalanishdir.

Xalq og'zaki ijodi janrlaridan hisoblangan maqollarda ham ayni shu haqida juda kerakli fikrlar berilgan. Maqollar – bu xalqning donoligi, millatning ruhini ko'rsatadigan xalq og'zaki ijodining gavharidir. Maqollar – bu xalq tajribasi, uning nafasi, yig'isi, shodligi va sevinchi, qayg'usi va ovunchi, xalq haqiqati uni to'g'ri yo'lga eltuvchi mayoqdir.[3.3]

Maqol fikrlarni ixcham, lo'nda aniq mantiqli ta'sirchan tarzda o'zida qamrab olganligi bilan oson o'zlashadi, xotirada saqlanadi. Ana shu omil asosida xalq og'zaki ijodi janri sifatida shakllanishi, qo'llanishi imkoniyatlari ta'minlanadi. U fikr ifodalashning oson va qulay, ta'sirchan vositasi sifatida keyinchalik og'zaki nutqdan yozma adabiyotga ko'cha boshlagan. Kishi har bir so'zini o'ylab, ehtiyot bo'lib gapirishi kerak. Shu bois ayrim xalq maqollarida biror gapni aytishdan avval uni obdon o'ylab, atroflicha mulohaza qilib olish zarurligi uqtiriladi.

Maqollarda so'z qo'llash, undan o'rinli foydalanish so'zning hayotimizdagi ahamiyati, to'g'ri so'zlash, shirin so'zlilikni da'vat qiluvchi bir qancha guruhlariga ajratishimiz mumkin;

1. Yaxshi so'z va yomon so'z haqidagi maqollar.

Aytar so'zni ayt,

Aytmas so'zdan qayt. (O'zbek xalq maqollari ,78-bet)

Bu maqol orqali birovni dilini yomon so'z bilan qoldirgandan ko'ra shu so'zni umuman , aytmaslikka chaqirilgan.

Aytilgan so'z-otilgan o'q.(O'zbek xalq maqollari ,78-bet)

Maqolning zamirida og'zimizdan chiqqan har bir so'zimizni o'n marta o'ylab so'ngra nutqqa olib chiqishimiz kerakligi, aks holda o'q kai u kimningdir qalbini jarohatlab qo'yishi mumkinligi uqtirilgan.

Anjom –uy ziynati,

So'z-inson ziynati. (O'zbek xalq maqollari ,78-bet)

So'zning hayotimizda muhim o'ringa egaligi, so'z orqali kishi jamiyatda o'z o'rnini topishi aytilgan.

Ariqni suv bezar,

Odamni- so'z.,(O'zbek xalq maqollari ,78-bet)

So'zning, nutqning mazmunli bo'lishi insonning insoniyligini ko'rsatuvchi muhim manba ekanligi izohlangan.

Achchiq savol berib,

Shirin javob kutma.

„Barakalla “ga qul mehnat qilib o'lar.



Achchiq til- zahri ilon,
Chuchuk tilga- jon qurbon.
Bemorga shirin so'z kerak ,
Aqlsizga –ko'z. (O'zbek xalq maqollari ,78-bet)

Yuqoridagi maqollarda shirin so'zli bo'lish, yaxshi so'z bilan hamma ishing oson bitishi, agar tiling zahar bo'lsa maqsadiga erisholmasliging, hattoki shirin so'z orqali kishi qalbi cheksiz zavqqa to'lishi aytilgan.

Bir tavakkal buzadi,
Ming qayg'uning qal'asin.
Bir shirin so'z bitkazar,
Ming ko'ngilning yarasin. (O'zbek xalq maqollari ,78-bet)

Bu maqolda hech ham o'ylamasdan gapirmaslik, qo'lingdan kelgancha yaxshilik ulashish, jarohatli ko'ngillarga malham bo'ladigan so'zlarni aytish haqida fikr borgan.

Bir yaxshi gap esdan chiqmas,
Bir – yomon gap
Birovning o'zi g'ar,
Birovning so'zi g'ar.

Bug'doy noning bo'lmasin ,
Bug'doy so'zing bo'lsin.
(O'zbek xalq maqollari ,78-bet)

Yuqoridagi maqollarda ham so'zning yaxshi va yomon tomonlari aks ettiriladi. Yaxshi so'zning foydali tomoni, yomon so'zning zararlari haqida fikr berilgan.

Gapda g'iybat yomon,
Dardda – quyanchiq.
Gapdan gap chiqar,
Cho'pdan – xas.
(O'zbek xalq maqollari ,80-bet)

So'zlashganda g'iybat qilmaslik,gapni orqasidan quvgan odamning holi voy bo'lishi aytilgan.

2.Qisqa va ma'noli so'zlash haqidagi maqollar.

Xalqimiz so'zlaganda fikrni qisqa, lo'nda, aniq ifodalashni doim fikrni boshqalarga tezda tushunilishi asosi deb bilgan.

Gapi gapga o'xshamas ,
Og'zi gapdan bo'shamas.

Bu maqolda ko'p gapirish odati yaxshi odat emasligi, kamroq gapirib ko'proq mazmun yuklash haqida .

Gapning yomoni pichir.

Birovni g'iybat qilish, jamoat joyida o'zaro pichirlab gapirishning yaxshi odat emasligi.

Gapning ozi yaxshi,
Qizning nozi .



Gapning qisqasi – yaxshi,
Qisqasidan hissasi –yaxshi.

Bu maqollarda so'zning me'yorini bilish, fikrni ixcham , lo'nda va tushunarli qilib boshqalarga yetkazishga e'tibor qaratilgan.

3. So'zning ma'nodorligi va shirin so'zli bo'lish haqidagi maqollar.

So'zlaganda ma'noli so'zlash, fikrini tinglovchiga yetkazishda ma'nodorlik ko'lamini yodda tutish, oz so'zda ko'p ma'no yuklash haqida doim fikrlar bo'lgan. Bu maqollarda o'z aksini topgan.

Dorining achchig'i yaxshi ,
So'zing –shirini .

Har mevaning po'chog'i bor,
Har so'zning o'lchovi bor.

Dunyoni yel buzar,
Odamni – so'z.

Yomonning yaxshi so'zidan ,
Yaxshining yomon so'zi yaxshi.

Yomonning tili bor,
Yaxshining –dili.

Yomon til yo jonga urar,
Yo – imonga. (O'zbek xalq maqollari,80-bet)

Yuqoridagi misollar orqali shirin so'zli bo'lish, har bir gapimizni ma'nosini bilib, keyin uni boshqalarga yetkazish haqida fikr boradi.

Yo'l quvgan xazinaga yo'liqar,
So'z quvgan - baloga .

Bu maqolda ham gapni ketidan quvmaslik, birovni gapini boshqa birovga aytmaslik haqida gap boradi.

4. O'ylamasdan gapirmaslik haqidagi maqollar.

Ko'ngilsiz gapning kechikkani yaxshi.

Kuch egmaganni so'z egar.

Zahar til suyakni yorar

Og'izga kelgan so'z arzon,

Ovulga kelgan bo'z arzon .

Pichir-pichirdan o't chiqar.)

So'zdan so'zning farqi bor,

O'ttiz ikki narxi bor.

(O'zbek xalq maqollari,83-bet)

Yuqoridagi maqollar orqali biz tilni qisqa qilish, bo'lar-bo'lmas so'zlarni so'zlamaslik kerakligini bilib olishimiz mumkin.

5. Yomon so'zning ziyoni haqidagi maqollar.

Uzun til-umr zavoli.

Uzun tilim-uzgun tilim,



Qisqa tilim-tizgin tilim.
(O'zbek xalq maqollari, 85-bet)
Shirin-shirin so'zlasang,
Ilon inidan chiqar.
Achchiq-achchiq so'zlasang,
Musulmon dinidan chiqar. (86)
Yaxshi gapga quloq sol,
Yomon gapga-ham.
Yaxshi so'z bo'ldiradi,
Yomon so'z kuydiradi
Yaxshi so'zdan moy eriydi,
Yomon so'zdan soy quriydi. (87-bet)

Bu maqollarda so'zlaganda nutq madaniyati va muloqot odobi qoidalarini bilish, tilni qisqa qilishga e'tibor qaratilgan. O'zaro pichirlashib, yon-atrofdagilardan gap berkitib, bironing orqasidan gapirish, g'iybat qilish, shuningdek, „yuzingda ko'zing bormi“ demay, bironvga kesatiq, piching qilib, sanchib-sanchib gapirish – o'ta ketgan yomon odat ekanligi

6. Yolg'on va rostgo'ylik haqidagi maqollar.

Jamiyat sarvari insonning tabiatda ijobiy va salbiy sifatlari bo'ladi. Odam doimo o'zidagi ijobiy sifatlarni asrash, salbiy odatlardan saqlanishga harakat qiladi. Kishilarning eng yomon salbiy sifati bi yolg'onchilikdir. Inson har qanday fikrning noto'g'ri ekanligini bilib tasvirlashi yolg'ondir [4.4]

Chin so'z-mo'tabar,
Yaxshi so'z-muxtasar.
Tilingni to'g'ri tutolmasang, dilingni to'g'ri tut.
Rostga zavol yo'q.
To'g'ri so'zning to'qmog'i bor.
So'zning dami qilichdan o'tkir.
So'z - qilichdan o'tkir
Aytilgan so'z - otilgan o'q.
To'g'ri so'zning zahri yo'q

Demak, bu birgina maqollar doirasida so'z va undan foydalanish haqidagi fikrlar.

Xalqimiz tilning hayotimizda naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini rivoyatlarda ham keltirib o'tganlar.

Xalq og'zaki ijodining yana bir turi bo'lgan rivoyatlarda ham so'z qo'llash, nutqning o'ziga xos ko'lamdorlik jihati aks ettirilgan. Rivoyatlar ham xalqimiz tomonidan ko'rgan bilgan tajribalari asosida shakllangan turli xil mavzu yo'nalishida ixcham va ta'sirli tarzda xalq xazinasidir. Ularda ham so'z qo'llash mahorati, muloqot odobi haqidagi ibratli rivoyatlar yetib kelgan. Ular hozirda adabiyotimizning tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan janri sifatida adabiyotimiz xazinasini boyitmoqda. Ularda til



uning ahamiyati, so'zning qudrati aks etgan. Quyidagi rivoyatda ham ayni shu xususiyat aks etgan:

O'tmishda ovi yursa ham dovi yurmay, tobora kambag'allashib borayotgan bir dehqon yo'l chetida o'ylanib tursa, faqirgina yo'lovchi o'tib qolibdi. Shunda dehqon:

- Ey donishmand, nima eksam, men boyib ketaman? - deb maslahat so'rabdi.

Yo'lovchi unga piyoz ekishni tavsiya etibdi. Qarangki, notanish yo'lovchining gapiga kirgan dehqon o'sha yili chindan ham boyib ketibdi. Shodligidan bosar -tutarini bilmay qolgan dehqonga yana o'sha odmigina yo'lovchi uchraganida:

- Ey gado, nima eksam, men yanada boyib ketaman? - deb ikkinchi marotaba murojaat qilibdi.

Shunda u yana bir ekinning nomini aytib, yo'lida davom etibdi. Falakning gardishini qarangki, keyingi yili dehqonning omadi chopmay, ilgarigidan ham kambag'allashib ketibdi. Bundan g'oyatda g'azablangan dehqon haligi yo'lovchini sabrsizlik bilan kuta boshlabdi. Nihoyat, u notanish yo'lovchi bilan duch kelibdi va:

-Ey notovon yo'lovchi, nega meni aldading? Sening gapinga kirib, yanada boyish o'rniga butkul kambag'allashib ketdim-ku?,-deb g'azab qilibdi.

-O'zingni bos,- debdi yo'lovchi.- Birinchi yili sen menga „donishmand“ deb murojaat qilding. Men senga donishmandning javobini berdim. Natijada sen boyib ketding. Keyingi safar sen menga „gado“ so'zini munosib ko'rding va men senga gadoning javobini berdim,-degan ekan. [5.5]

Rivoyatda aytilishicha, demak har doim bergan salomimizga yarasha alik olishimiz mumkinligi, shuning uchun ham doim suhbatda shirin so'zli bo'lishimizni aytilgan. Hech qachon achchiq savol berib, undan shirin javob kutmaylik. Tilni maqsadli ishlataylik.

Xalq orasida topishmoq, jumboq, ba'zan metal, topar, cho'pchak kabi terminlar bilan yuritilib kelingan topishmoq janri o'zbek folklorida qadim zamonlardan hozirgacha yashab kelmoqda va rivojlanmoqda. Uzoq o'tmish davrlarda topishmoq insonni o'rab olgan muhit va tabiatning turli-tuman hodisalari haqidagi tushunchalarning badiiy ifodasi sifatida maydonga kelgan.

„Topishmoq“ so'zi „top“ buyruq fe'liga „ish-moq“ yasovchilari qo'shilishi bilan chigal, murakkab, belgi-xususiyati yashirin berilgan biror noma'lum narsani topish mazmunini ifodalaydigan yasama otga aylangan. Tabiat va jamiyat hodisalari kishilar oldiga ko'p murakkab jumboqlar, muammolar qo'ygan. [6.6]

Topishmoq aytish, asosan, yoshlarining so'z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi bilim- tushunchasi, idroki va mulohazalarini kengaytirish uchun zarur tarbiya vositalaridan biri bo'lgani tufayli ular soddadan murakkabga, osondan qiyinga borish usulida yaratilgan. [7.7]

Xalqimiz ijodkor uning har bir yaratig'ida o'zgacha talqin bor. Ular tomonidan yaratilgan har bir ijodiy merosda o'ziga xos uslub bor. Shular orasida topishmoqlar alohida qiymatga ega Topishmoqlar kishilardan o'tkir zehnni talab qiladi. Ularning



ham mavzu ko'lami ko'p. Shular orasida nutq va til haqidagi topishmoqlar alohida qiymatga ega. Ularni ba'zilarini quyida keltiramiz.

1. Temir q qo'rg'on ichida qizil toychoq o'ynaydi (Til)
2. Bir nafasda olamni kezar. (Fikr)
3. Yugurgandan o'tadi
4. Uzoqning u yog'inda
Yaqinning bu yog'inda
Ko'rinmas ko'zga,
Tinch bermas bizga (xayol)
5. Asaldan shirin,
Zahardan achchiq (so'z, gap)
6. Birovni suydirar,
Birovni kuydirar. (so'z gap)
7. Og'izdan ochdim uchdi ketdi,
Samarqandu Buxoro borib yetdi (so'z gap)
8. O't emas kuydirar,
Pichoq emas so'ydirar. (yolg'on so'z)
9. Og'izdan chiqancha meniki,
Og'izdan chiqani elniki. (so'z gap).
10. Kim suyaldi, O'sha uyaldi. (yolg'on so'z)

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, tilning turli xil tomoni xalq og'zaki ijodining o'ziga xoslik janrlari tomonidan ifodali tarzda talqin qilingan. Hozir biz til va uning muloqot jarayonidagi turli xil jihatlarini xalq og'zaki ijodida aks ettishini ko'rib chiqdik. Quyidagicha xulosaga kelish mumkin. Til madaniyati jamiyatning tilga bo'lgan munosabati asosida vujudga kelgan jarayondir. Tildagi barcha o'zgarishlar xalq og'zaki yoki yozma manbalarda o'z ifodasini topadi. Ularni o'rganish orqali biz o'z nutqimizdagi nuqson va kamchiliklarni to'g'rilaymiz. Xalqimizning ijodi tuganmas xazina uni o'rganish esa mahorat, boshqalarga yetkazish esa san'at. San'atning vazifasi esa kishiga yaxshi kayfiyat bag'ishlash va ta'sir ko'rsatish. Shuning uchun ham biz xalqimiz tomonidan yaratilgan ibratnomalarni ko'p va xo'b o'qishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. Mirziyoyev. Xalq so'zi. 2019-yil 5-oktabr 1-bet (O'zbekiston Respublikasining „Davlat tili haqida“ gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash tog'risida “gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.
2. Sh. Mirziyoyev. Xalq so'zi. Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli. 2019-yil, 22-oktyabr, 1-bet. Prezident Sh. Mirziyoyevning o'zek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
3. F. Adilova. Yaxshilik tushunchasini ifodalovchi maqollar semantikasi, Toshkent -2018-yil 8-bet



4. O. Bo'riyev. Ajdodlarimiz merosida yolg'onchilik illatining qoralanishi, Imom Buxoriy ilmiy tadqiqot markazi, 2022-yil 13.06
5. Siddiq Mo'min . So'zlashish san'at. Farg'ona . 1997.60-bet.
6. N. Muhitdinova. O'zek folklori, Samarqand-2019-yil, 50-bet
7. N. Muhitdinova. O'zek folklori, Samarqand-2019-yil, 51-bet.
8. Сейтнйазов, К. М. (2023). Некоторые виды трансформации топонимов. *Science and Education*, 4(2), 1700-1704.
9. Сейтнйазов, К., Шерипова, Г. (2020). Топонимларнинг классификация турлари. Республикалық Илимий-теориялық онлайн конференция, 1(1), 70-72.
10. Seitniyazov, K. M., & Baltabayev, O. O. (2020). Methods for toponymical research of objects. *Fan va jamiyat*, 1(1), 28-29.